

XITOIY TILINI IKKINCHI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘ZBEKISTON UMUMTA’LIM MAKTABLARIGA JORIY ETISH: O‘QUV DASTURLARI VA AMALIYOT



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-42-49>

Nazarova Sayyora,

falsafa doktori (PhD), Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti TDSHU,

e-mail: zayidova@gmail.com

Chi Daojia,

falsafa doktori (PhD), Xalqaro Xitoy tili ta’limi kafedrası o’qituvchisi,

Xanchjou elektronika va texnologiyalar universiteti (XXR)

e-mail: 1371268277@qq.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy tilini O‘zbekiston umumta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etish masalalari yoritilgan. Unda normativ-huquqiy asoslar, o‘quv dasturlari va darsliklar hamda baholash tizimlari, jumladan choraklik spetsifikatsiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, Xitoy va Rossiya tajribalariga oid ilmiy adabiyotlar sharhi berilib, O‘zbekiston ta’lim amaliyotidagi yangiliklar bilan bog‘lanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitish jarayoni bosqichma-bosqich yondashuv, maxsus dasturiy hujjatlar, xalqaro tajribaga asoslangan darsliklar va baholashning standartlashtirilgan tizimi orqali shakllanmoqda.

Kalit so‘z va iboralar: Xitoy tili, ikkinchi xorijiy til, umumta’lim maktablari, o‘quv dastur, darslik, baholash tizimi.

IMPLEMENTATION OF TEACHING CHINESE AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS OF UZBEKISTAN: CURRICULA AND PRACTICE

PhD Nazarova Sayyora Anvarovna

Associate Professor of

Higher School of Chinese Studies,

Tashkent State University of Oriental Studies.

e-mail: zayidova@gmail.com

PhD Chi Daojia,

Lecturer of

the Department of International Chinese Language Teaching,

Hangzhou University of Electronics and Technology (PRC)

e-mail: 1371268277@qq.com

Abstract. *This article discusses the issue of introducing Chinese as a second foreign language in general education schools of Uzbekistan. It analyzes the normative and legal framework, curricula and textbooks, as well as assessment systems, including quarterly examination specifications. In addition, a review of scholarly literature on the experiences of China and Russia is presented and connected with new developments in the educational practice of Uzbekistan. The research results show that the process of teaching Chinese as a second foreign language in Uzbekistan is gradually being shaped through a step-by-step approach, special programmatic documents, textbooks based on international experience, and a standardized assessment system.*

Keywords and Phrases: *Chinese language, second foreign language, general education schools, curriculum, textbook, assessment system.*

KIRISH

Globalashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish masalasi nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki zamonaviy ta'lim tizimining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tillarni o'qitish davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiritildi. Mazkur jarayonni ta'minlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar buning yaqqol isbotidir.

Xususan, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son Prezident qarori xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilishga zamin yaratdi. Ushbu qaror bilan xorijiy tillarni erta yoshdan boshlab o'qitish, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va yangi o'quv-metodik ta'minotni ishlab chiqish vazifalari ilgari surildi. Keyingi bosqichda, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son qarori xorijiy tillarni ommalashtirishni samarali tashkil etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilab berdi.

Ayniqsa, 2024-yilda qabul qilingan PQ-53-son Prezident qarori va VMQ-493-son qarori asosida umumta'lim maktablari o'quvchilari ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon hamda xitoy tillarini xorijiy til sifatida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, Adliya vazirligining 2024-yil 29-maydagi 3515-son qarori xorijiy tillarni bilish darajasini baholash uchun milliy va xalqaro sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlab, baholash tizimining standartlashtirilgan shaklini joriy etdi.

Mazkur qarorlarning barchasi xorijiy tillarni o'qitishni bosqichma-bosqich rivojlantirish, o'quv dasturlarini yangilash, zamonaviy darsliklarni joriy etish va baholash mexanizmlarini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu jarayonda, xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida umumta'lim maktablari dasturlariga kiritish tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Zero, bu nafaqat

o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini kengaytiradi, balki mamlakatning Xitoy bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shu boisdan, mazkur maqolada xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etish jarayonining dasturiy asoslari, darsliklar va baholash spetsifikatsiyalari, shuningdek, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan amaliy tajribalar ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni, xususan ikkinchi xorijiy tilni o'qitish masalasi ko'plab davlatlarda ta'lim siyosatining ajralmas qismiga aylangan. Avvalo, e'tibor qaratish lozimki, xitoylik olimlar va tadqiqotchilarning izlanishlari ushbu sohada muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratib berdi. Masalan, Hu G. (2008) ingliz tilining Xitoydagi ta'lim siyosatidagi o'rnini chuqur tahlil qilib, uni mamlakatning global integratsiyaga intilishida strategik omil sifatida baholaydi [Hu, 2008]. Shu bilan birga, muallif an'anaviy metodlarga haddan tashqari bog'lanib qolish ta'lim samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Wen Q. (2016) ishlab chiqqan Production-Oriented Approach (POA) nazariy modeli xorijiy til o'qitishning zamonaviy paradigmasi sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy kommunikativ faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslaydi [Wen, 2016]. Shu nuqtai nazardan, POA o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish va mustaqil nutq faoliyatini rivojlantirishda samarali metod sifatida e'tirof etilmoqda.

Zheng Y. (2019) esa o'z tadqiqotida milliy imtihon — Gaokao tizimining ingliz tili ta'limiga ta'sirini yoritib, uni ikki qirrali hodisa sifatida ko'rsatadi: bir tomondan, u o'quvchilarda kuchli motivatsiya uyg'otadi, ikkinchi tomondan esa ijodiy va erkin kommunikativ kompetensiyalarni cheklab qo'yadi [Zheng, 2019].

Rossiya tajribasiga oid ilmiy ishlarda ham ikkinchi xorijiy tilni o'qitish muammolari keng yoritilgan. K.S. Kryukovanning (2018) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Federal davlat ta'lim standartlari asosida ikkinchi xorijiy tilni majburiy fan sifatida joriy etish tashabbusi mavjud bo'lsa-da, amaliyotda resurslar, xususan malakali kadrlar va metodik materiallarning yetishmovchiligi sezilarli to'siq bo'lib qolmoqda [Kryukova, 2018].

E. G. Xrisanova va Ma Isya (2018) o'z maqolalarida Xitoydagi xorijiy tillarni o'qitish tarixiy bosqichlarini o'rganib, til siyosatining o'zgarishi ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadilar. A. B. Antonova (2017) esa zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilib, xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning milliy-madaniy

va kognitiv xususiyatlarini inobatga olishning ilmiy-metodik zaruratini asoslaydi [Antonova, 2017].

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Xitoy va Rossiya tajribasida ikkinchi xorijiy tilni o'qitish masalasi faqat lingvodidaktik jarayon emas, balki davlat ta'lim siyosati va ijtimoiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, O'zbekistonda xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etishda mazkur tajribalar muhim ilmiy va metodik tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Umumiy o'rta ta'limning ikkinchi xorijiy til - Xitoy tili fani o'quv dasturining tahlili

O'zbekiston umumta'lim maktablarida xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etish uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturi PQ-53 qarori asosida yaratilib, bosqichma-bosqich yondashuvni nazarda tutadi. O'quv dastur CEFR standartlariga uyg'un holda 10-sinfda A1, 11-sinfda esa A2 darajaga erishishni ko'zda tutadi.

O'quv dasturda ta'lim maqsadlari amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishlarda tizimlashtirilgan bo'lib, ular o'quvchilarda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik hamda raqamli savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa CEFR standartlari bilan uyg'unlashgan holda xalqaro tajribaga mos keladi.

Dastur mazmuni fonetika, leksika, grammatika va kommunikativ ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallashni nazarda tutadi. 10-sinfda A1 darajaga (sodda muloqot, kundalik mavzular, qisqa matnlar), 11-sinfda esa A2 darajaga (oddiy dialog va monologlar, kundalik hayotiy vaziyatlarda erkinroq muloqot) erishish kutilmoqda.

O'quv dastur CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodini qo'llashni ham nazarda tutadi. Bu orqali o'quvchilar matematika, informatika, tarix kabi fanlarga oid mavzularni xitoy tilida o'rganib, integrativ bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Beshinchidan, baholash tizimi ham batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, unda formativ (jarayonni kuzatish) va summativ ((Bosh sinov baholash (BSB) va Chorak sinov baholash (ChSB)) baholash shakllari aniq mezonlar bilan belgilangan. Natijalar o'quvchilarning A1-A2 kompetensiyalariga erishish darajasini ko'rsatadi.

Shu asosda, ushbu dastur O'zbekistonda xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida samarali joriy etish uchun mustahkam normativ-huquqiy, metodik va baholash asoslarini yaratmoqda. Mazkur jarayonning dastlabki amaliy bosqichi sifatida ayrim umumta'lim maktablarida pilot tajribalar yo'lga qo'yildi. Quyidagi jadvalda xitoy tili 2-xorijiy til sifatida o'qitila boshlagan maktablar keltirilgan.

O‘zbekiston umumta’lim maktablarida Xitoy tili 2-xorijiy til sifatida o‘qitilishi.

1-jadval

Hudud	Tuman/Shaharlar va maktablar
Jizzax viloyati	Jizzax shahar – 22-maktab
Toshkent viloyati	O‘rta Chirchiq tumani – 59-maktab
Toshkent shahri	Uchtepa tumani (14-, 81-maktablar), Shayxontohur tumani (59-maktab), Yunusobod tumani (246-maktab), Yashnobod tumani (339-maktab)

Shuni e’tirof etish lozimki, mazkur maktablarda o‘quv jarayoni pilot tarzda yo‘lga qo‘yilib, olingan tajribalar keyinchalik boshqa hududlarga ham tatbiq qilinishi rejalashtirilmoqda.

Darsliklar, spetsifikatsiya va baholash standartlarining tahlili

Darslik. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitishda qo‘llanilayotgan asosiy manbalardan biri — 《新实用汉语课本》 (Yangi amaliy xitoy tili darsligi, 3-nashr, o‘zbekcha sharhli) hisoblanadi. Avvalo, ta’kidlash joizki, ushbu darslikning o‘zbek tilidagi tarjima va izohlar bilan taqdim etilishi o‘quvchilarga tilni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Ayniqsa, fonetika, ohanglar va pinyin tizimiga oid bo‘limlarda o‘zbekcha sharhlarning mavjudligi yangi tilni o‘rganishdagi murakkab jihatlarni osonroq anglash imkonini beradi.

Mazkur darslikning o‘ziga xos jihati shundaki, unda fonetika, leksika, grammatika va nutqiy faoliyat elementlari integratsiyalashgan holda berilgan. Har bir bobda o‘quvchilarning kundalik muloqotda qo‘llay oladigan so‘z va iboralari, madaniy kontekstga oid matnlar, hamda og‘zaki va yozma mashqlar mavjud. Shu tariqa, darslik nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi.

Spetsifikatsiya va baholash standartlar. Shuni alohida qayd etish kerakki, darslikning mazmuni baholash standartlari bilan ham uzviy bog‘langan. 10-sinf uchun ishlab chiqilgan **CHSB (choraklik baholash spetsifikatsiyasi)**da baholash tizimi uch darajada tashkil etilgan: bilish, qo‘llash va mulohaza. Ushbu yondashuv Bloom taksonomiyasi asosidagi kognitiv bosqichlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilimdan amaliyotga, amaliyotdan esa tahlil va umumlashtirish darajasiga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

• Bilish darajasi o'quvchidan pinyin tizimi, ohanglar, iyeroglif chiziqlari va asosiy grammatik birliklarni eslab qolish va tanib olishni talab qiladi.

• Qo'llash darajasi o'quvchini oddiy muloqot vaziyatlarida o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanishga yo'naltiradi. Masalan, salomlashish, kundalik suhbat yoki savdo jarayonini ifodalash kabi topshiriqlar bu bosqichga mansub.

• Mulohaza darajasi esa o'quvchidan mustaqil ravishda matnni tahlil qilish, asosiy ma'lumotni ajratib olish hamda grammatik va leksik xulosalar chiqarishni talab etadi.

Shu bilan birga, CHSB hujjatida "Baholash mezonlari" bo'limida quyidagilar qayd etilgan:

• Leksik va grammatik bilimlarni qo'llash — o'quvchi so'z va gaplarni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llashi (2 ball).

• Pinyin va ohanglarni to'g'ri talaffuz qilish — tovushlarni, ohanglarni farqlash hamda so'zlarni fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz etish (2 ball).

• Matnni tushunish — o'quvchi o'qigan matndan asosiy ma'lumotni ajratib ola bilishi va savollarga javob berishi (3 ball).

• Kommunikativ ko'nikmalar — oddiy dialoglarda ishtirok etish, salomlashish, tanishish, kundalik hayotiy vaziyatlarda gapira olish (3 ball) va hok. Umumiy ball 20 ballni tashkil qiladi.

Baholash tizimida formativ (jarayonni kuzatish) va summativ (BSB va CHSB) shakllarning uyg'unlashuvi kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini muntazam nazorat qilish, darslikda belgilangan o'quv maqsadlariga erishish darajasini obyektiv aniqlash imkonini beradi. Natijada, o'quv jarayoni nazariy material va amaliy ko'nikmalar uyg'unligiga asoslanadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlildan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

O'zbekiston umumta'lim maktablarida xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etish jarayoni qisqa muddat ichida sezilarli natijalar berdi. Normativ-huquqiy asoslarning yaratilishi, maxsus o'quv dasturining ishlab chiqilishi, darsliklarning o'zbek tiliga tarjima va sharhlar bilan taqdim etilishi hamda CHSB kabi baholash standartlarining joriy etilishi mazkur yo'nalishning muhim yutug'i sifatida qayd etilishi mumkin.

Biroq, shuni ham e'tirof etish lozimki, tajriba hali boshlang'ich bosqichdadir va ayrim masalalar yanada takomillashtirilishini talab qiladi. Jumladan, darsliklarning lingvodidaktik moslashuvi bo'yicha qo'shimcha ilmiy-metodik izlanishlar olib borish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish hamda baholash

tizimini xalqaro sertifikatlash mezonlariga yanada yaqinlashtirish istiqboldagi dolzarb vazifalardan biridir.

Shuningdek, pilot maktablarda to‘plangan amaliy tajribani muntazam monitoring qilish, uning samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish va keyinchalik boshqa hudud maktablariga tatbiq etish jarayonini izchil yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, olib borilgan islohotlar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etish uchun mustahkam poydevor yaratildi. Endilikda bu yo‘nalishning kelajagi tizimni yanada takomillashtirish, metodik bazani boyitish va xalqaro tajribalarni keng tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–1875-son qarori, 10.12.2012. – URL: <https://lex.uz/docs/2126032>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 312-son qarori, 19.05.2021. – URL: <https://lex.uz/docs/5431845>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–53-son qarori, 02.02.2024. – URL: <https://lex.uz/docs/6787995>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 493-son qarori, 09.08.2024. – URL: <https://lex.uz/docs/7057258>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 3515-son qarori, 29.05.2024. – URL: <https://lex.uz/docs/6943986>.
6. Hu G. English language education in China: Policies, progress, and problems // *Language Policy*. – 2008. – Vol. 7, №1. – P. 5–24. DOI: <https://doi.org/10.1007/s10993-007-9036-9>.
7. Wen Q. Developing a theoretical system of production-oriented approach in language teaching // *Chinese Journal of Applied Linguistics*. – 2016. – Vol. 39, №5. – P. 563–579. DOI: <https://doi.org/10.1515/cjal-2016-0030>.
8. Zheng Y. National College Entrance Examination (Gaokao) and its influence on English education in China // *Frontiers of Education in China*. – 2019. – Vol. 14. – P. 307–329. DOI: <https://doi.org/10.1007/s11516-019-0019-2>.
9. Kryukova K. S. Teaching a Second Foreign Language in the Russian School // *Vestnik Perm State Humanitarian Pedagogical University*. – 2018. – №3. – P. 40–48.
10. Хрисанова Е. Г., Ма Ися. Иноязычное образование в средних школах Китая // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева. – 2018. – №2(98). – С. 304–311.

11. Антонова А. Б. Современные тенденции в обучении китайских школьников и студентов английскому языку как иностранному в образовательных учреждениях России и Китая // Российско-Китайские исследования. – 2017. – Т.1, №1. – С. 72–79. 《新实用汉语课本》(Yangi amaliy xitoy tili darsligi). – 3-nashr. – Beijing: Beijing Language and Culture University Press, 2021. (O‘zbekcha sharhlar bilan).
12. 10-sinf Xitoy tili CHSB (Choraklik baholash spetsifikatsiyasi). – Toshkent: Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, Metodik qo‘llanma, 2025.
13. Umumiy o‘rta ta’limning ikkinchi xorijiy til – Xitoy tili fani o‘quv dasturi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, 2024. – 49 b.
14. Назарова, С. А., & Каримов, А. А. (2022). ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КИТАЕВЕДЕНИЯ: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАФЕДРЫ КИТАЙСКОЙ ФИЛОЛОГИИ ТГУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 156-162.